


## SAMARQAND VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


(2019 yil yanvar\*)

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi 828,5 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,3 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 90,4 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 126,2%), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 629,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 102,6 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 108,3 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,7 % ga kamaygan) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi  
(mlrd. so'm)**





2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Samarqand shahri va Samarqand, Pastdarg'om, Payariq tumanlarida qayd etildi.

**Chakana savdo tovar aylanmasining o`shish sur`atlari, (%)**


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o`tgan yilning mos davriga nisbatan 26,2 % ga o`tdi va 90,4 mlrd. so`mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 10,9% ulushiga to`g`ri keladi.


Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra, 629,8 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 yilning yanvar oyiga nisbatan 2,6% ga o`tdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 76,0% ga tog'ri kelmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)**

 2018 yil  
yanvar

 2019 yil  
yanvar


■ Yirik korxonalar  
■ Kichik tadbirkorlik

**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Bulung'ur (99,8%), Nurobod (99,8%), Narpay (99,7%), Tayloq (99,8%) va Kattaqo'rg'on (99,7%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,9% ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahrida (29,1%), Samarqand tumanida (41,4%) va Pastdarq'om tumanida (4,9%) kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**


Hudud nomi	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik tadbirkorlik (mlrd.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>90,4</b>	<b>126,2</b>	<b>738,1</b>	<b>102,1</b>
Samarqand shahri	63,6	140,6	154,8	98,8
Kattaqo`rg`on shahri	0,15	112,1	45,9	102,3
<i>tumanlar:</i>				
Bulung`ur	0,08		52,8	101,6
Jomboy	0,13		23,5	102,0
Ishtixon	0,2		32,1	102,2
Kattaqo`rg`on	0,09		34,5	102,3
Narpay	0,1		29,9	102,3
Nurobod	0,05		31,5	102,4
Oqdaryo	0,23		24,4	101,6
Payariq	0,24		33,1	102,2
Pastdarg`om	3,2	50,1	60,8	111,4
Paxtachi	0,14		28,9	102,4
Samarqand	20,0	118,5	28,3	102,0
Tayloq	0,06		23,9	102,0
Urgut	2,1	67,2	106,2	102,4
Qo`shrabot	0,08		27,6	102,4

**Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahri 26,4%, Urgut tumani 13,1%, Pastdarg'om tumani 7,7%, Bulung'ur tumani 6,4%, Kattaqo'rg'on shahri 5,6%, Samarqand tumani 5,8%, Ishtixon tumani 3,9%, Kattaqo'rg'on tumani 4,2% va Paxtachi tumani 3,5% chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### Chakana savdo tovar aylanmasida tumanlarning ulushi, (%)



2019 yil yanvar oyida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 220,4 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,3 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar oyida o'tgan yilga nisbatan viloyatning barcha hududlarida (Bulung'ur (99,7%), Jomboy (99,0%) va (Urgut (98,8%) tumanlaridan tashqari) o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Kattaqo'rg'on shahri (526,3 ming.so'm), Samarqand shahri (409,1 ming. so'm) va Nurobod tumani (217,2 ming.so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Tayloq (123,5 ming.so'm), Kattaqo'rg'on (130,7 ming.so'm) va Ishtixon (131,7 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>220,4</b>	<b>102,3</b>
Samarqand shahri	409,1	106,7
Kattaqo`rg`on shahri	526,3	101,0
<i>tumanlar:</i>		
<i>Bulung`ur</i>	292,3	99,7
<i>Jomboy</i>	143,0	99,0
Ishtixon	131,7	100,6
Kattaqo`rg`on	130,7	100,6
Narpay	145,0	101,0
Nurobod	217,2	100,5
Oqdaryo	159,7	100,6
Payariq	138,1	100,9
Pastdarg`om	186,7	102,9
Paxtachi	207,7	101,1
Samarqand	198,4	106,2
Urgut	221,8	98,8
Tayloq	123,5	100,1
Qo`shrabot	218,2	100,6

Jumladan, 2019 yilning yanvar oyi mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,3% ni tashkil etib, 19,0 mlrd. so`mga yetdi, yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 3,5% o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 95,2% ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

**SAMARQAND VILOYATINING  
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**


(2019 yil yanvar\*)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 335,5 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 4,8% ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar oyi yakunlariga ko'ra, 239,5 mlrd. so'mni, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 91,5% ni tashkil etdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 71,4% ni tashkil qilmoqda. Yirik korxonalar 96,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 64,9% ga o'sdi.


**Ulgurji savdo tovar aylanmasida  
yirik va kichik korxonalarining ulushi, foizda**

**2018 yil**



■ Yirik korxonalar  
■ Kichik korxonalar

**2019 yil**



■ Yirik korxonalar  
■ Kichik korxonalar

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:71-230-85-23  
66-235-65-80**